

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

Bilimningga ishon va muvaffaqiyatga erish!

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI
ISHTIROKCHILARI UCHUN

O'ZBEK TILI (IKKINCHI TIL)
FANIDAN
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test varianti 30 ta (1–30) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

– yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;

– ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;

– moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiy oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (28-, 29-, 30-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1. [2,4 ball]
Imloviy jihatdan TO'G'RI yozilgan so'zlarni aniqlang.
A) *dimog'dor, komolat, na'muna*
B) *novvoy, mojaro, mash'um*
C) *xurofot, shavqat, xilqat*
D) *muomala, nuqtai nazar, dabdurustdan*
2. [0,9 ball]
Quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zning **shakldoshi ishtirok etgan gapni aniqlang.**
Og'riq pasayish o'rniga yana ham ortgan edi.
A) *Hozir aholining energiyaga bo'lgan ehtiyoji avvalgidan ancha ortgan.*
B) *Nasibaxon ro'zg'ordan ortgan pulga yangi kiyim-bosh sotib oldi.*
C) *Barcha ishni mening zimmamga ortgan Husniddinning parvoyi palak edi.*
D) *Tushlikdan ortgan ovqatlarni bir idishga solib, muzlatkichga solib qo'ydi.*
3. [1,7 ball]
Gapda noo'rin qo'llangan kelishik qo'shimchalari o'rnida **qo'yilishi lozim bo'lgan qo'shimchalarni aniqlang.**
Ota-bobolarimiz necha asrlar mobayniga shu bepoyon mintaqada qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham butun Osiyo xalqlari ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirayotganini guvohi bo'lmoqdamiz.
A) *-da, -ni* B) *-ga, -ni* C) *-ga, -ning*
D) *-da, -ning*
4. [1,7 ball]
Qaysi gapdagi ko'p nuqtalar o'rnida **faqat fe'l yasovchi qo'shimchalar tushirib qoldirilgan?**
A) *Mening hayot haqidagi falsafam o'zga... di: avvallari yeyish uchun hayot kechirgan bo'lsam, endi yash... sh uchun taom... aman.*
B) *Soch-soqoli kumushdek oq... gan cholning gaplari haq edi: bir... gan daryo bo'lur, tarqa... gan irmoq bo'lur.*
C) *Holbuki, bu dunyoda chinakam qayg'u... ishga arzi... bitta yo'q... ish bor, u ham bo'lsa, imondan ayrilmoqlikdir.*
D) *Bobodehqonning oftobdan qora... gan, tol... qan qo'llariga darmon bo'ling, uning mehnatini ardoq... ng.*
5. [0,9 ball]
Gapda ishtirok etgan so'zlar haqida berilgan **XATO hukmni aniqlang.**
Onda-sonda o'sgan daraxtlar sahro shamolida ojizgina tebranib turibdi, qum barxanlar osha sayyohlar qiynalib oldinga intilmoqdalar.
A) *Payt ma'nosini bildirgan ravish ishtirok etgan.*
B) *O'rin ma'nosini bildirgan ravish ishtirok etgan.*
C) *O'zlik nisbatdagi fe'l ishtirok etgan.*
D) *O'rin ma'nosini bildirgan ot ishtirok etgan.*

6. [2,4 ball]
- Qaysi javobda quyidagi gapdagi **grammatik bog'lanishlar NOTO'G'RI** berilgan?
- Bularning barchasi ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimizdan oziqlangan iqtisodiy taraqqiyot yo'limiz jamiyatning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganining yorqin ifodasidir.*
- A) ma'naviy an'analarimiz, urf-odatlarimiz ta'sir ko'rsatayotgani, iqtisodiy taraqqiyot
- B) ma'naviy oziqlangan, yo'limiz ta'sir ko'rsatayotgani, jamiyatning hayoti
- C) bularning ta'sir ko'rsatayotgani, ijobiy ifodasi, iqtisodiy hayoti
- D) qadriyatlarimizdan oziqlangan, iqtisodiy yo'limiz, jamiyatning ta'sir ko'rsatayotgani
7. [0,9 ball]
- Damlashdan oldin guruch ustiga turli ziravorlar, ya'ni zira, murch sepsangiz, osh yanada mazali bo'lib pishadi.*
- Ushbu gap haqida berilgan **XATO hukmni toping.**
- A) Ajratilgan bo'lak ishtirok etgan.
- B) Eganing uyushishi kuzatilgan.
- C) Payt va ravish hollari ishtirok etgan.
- D) Egali gap ishtirok etgan.
8. [2,4 ball]
- Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan **tinish belgilarining TO'G'RI ketma-ketligini yozing.**
- Yomon so'z tinglovchining ko'nglini xira qiladi xalqimiz behuda so'zlovchi kishlar haqida shunday deydi Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi*
- Javob: _____
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
9. [0,9 ball]
- Quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z o'rnida **almashtirib qo'llash mumkin bo'lgan so'zni yozing.**
- Amir Temur davlat boshqaruvida qat'iy tartib-intizom joriy etdi.*
- Javob: _____
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
10. [2,4 ball]
- "Xalal bermoq"** so'zining ma'nosiga teng keladigan iborani yozing.
- Javob: _____
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
11. [2,4 ball]
- Quyida berilgan gapdagi ko'p nuqtalarning hech biri o'rnida **qo'llab BO'LMAYDIGAN kelishik qo'shimchasini yozing.**
- Do'stlarim bilan qishlog'imiz... o'rtasi... oqib o'tgan daryo bo'yida to'plandik, mana shu qadrdon soylar... suv kechib yurgan, bir-birimizning yuzimizga suv sepib o'ynagan bolaligimiz... esladik.*
- Javob: _____
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.
12. [2,4 ball]
- Gapda vazifasiga ko'ra **qaysi turga mansub qo'shimchalar tushirib qoldirilgan?**
- Bahorga oshiqqan chechaklar ohista bo'y ko'rsatdi, moviy osmonda turnalarning ovozlari eshit... a boshladi, mahalla-ko'y bir-birini quv... gancha shodon o'ynayotgan bolalar shovqiniga to'ldi.*
- Javob: _____
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

13. [0,9 ball]

Quyida berilgan gapdagi ko'p nuqta o'rnida **tushirib qoldirilgan ko'makchini aniqlang.**

Shaxmat ... unga bas keladigani bu o'rtada topilmaydi.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

14. [0,9 ball]

Quyida berilgan gapdagi ko'p nuqta o'rnida **qaysi bog'lovchini qo'llash mumkin?**

Bugungi g'alaba bilan hamma uni chin dildan tabrikladi, ... Hakimjon hatto qayrilib ham qaramadi.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

15. [1,7 ball]

Quyidagi gapda fe'llar qaysi zamon ma'nosini ifodalagan?

O'sha yilgi voqea sabab bo'ladi-yu, ularning ikkalasi ikkita korxonaga ishga o'tib ketishadi, ammo men bu haqda keyinroq xabar topdim.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

16. [2,4 ball]

Berilgan gap bir bosh bo'lakli gaplarning **qaysi turiga mansub?**

Parta chigitidan juda ko'p mahsulotlar, masalan, yog', sovun ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

17. [0,9 ball]

Quyida berilgan qo'shma gap qismlari o'rtasida **qanday mazmuniy munosabat ifodalangan?**

Xayolida yulduzlarni har xil rangga bo'yab ko'rdi — yulduzlar o'z rangida miltirab turaverdi.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

Matnni o'qing va quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

SAN'ATKOR

Konsert odatdagicha «navbatdagi nomerimizda... Kelganlaringga rahmat, o'rtoqlar» bilan tamom bo'ldi. Nomi chiqqan ashulachi – san'atkordan boshqa hamma xursand bo'lib tarqaldi. San'atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi. Traktorist tanqid qilganiga san'atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan, «chorzarb» qayoqda, traktorist qayoqda-yu, ashulachi qayoqda!

San'atkor uyiga ketgani izvoshga o'tirganida yana tutaqib ketdi: «Hech bo'lmasa, aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt» emish! Nimasini bilmayman, nimasi to'g'ri emas?

Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas, formalizm, naturalizmlardan o'tdim – hech kim otvod bergani yo'q. Otvod berish qayoqda, hech kim meni og'ziga ham olmadi. Endi bir traktorist tanqid qilar emish!..

San'atkor izvoshchini hayron qoldirib, o'zidan-o'zi g'uldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nash'a qilar edi: «Ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa, nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti... Amali traktorist... Obbo!..»

– O'qishga bordingizmi? – dedi xizmatchiga qovog'ini solib.

– Bordim... – Xizmatchi ikki haftadan beri savod maktabida o'qir edi.

– Xizmatchisi savod maktabida o'qiyotgan bir kishini traktorist savodsiz, desa, alam qilmaydimi? – dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib, – «labingdan bo'lsa olsam, e shakarlab», deganim u kishiga yoqmapti, «bo'lsa» emas, «bo'sa» emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar «bo'sa, bo'masa» deydi. Artist kulturniy odam –gapni adabiy qilib aytadi – «bo'lsa, bo'lmasa» deydi. Pojarni «gugurtni yerga tashlamang», dedi, rejissorimiz esa «gugurtning yerga tashamang», dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta! Rejissorimiz juda kulturniy odam. Odam degan mana shunday bo'lsa, urishsa ham, xafa bo'lmaydi kishi – ikki gapning birida «ta'bir joyiz ko'rilsa» deb turadi. Bu traktorist menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta «ta'bir joyiz ko'rilsa», demadi.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oldiga qo'ydi.

– «J» ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti.

San'atkorning jahli chiqdi:

– Endi «J»ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi. Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo'lsangiz-chi!.. Burningiz terladi, arting, ta'bir joyiz ko'rilsa!

San'atkor o'rnidan turib yotoqqa kirib ketdi.

– Yotasizmi? – dedi xizmatchi narigi uydan.

– Nima edi?

– «J»ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?

– Kichigini yozib qattiqroq o'qing!..

18.

[0,9 ball]

Ushbu hikoya bilan bog'liq **to'g'ri fikrni aniqlang.**

- A) *O'ziga bino qo'ygan, ammo san'atni tushunmaydigan oddiy kasb egalari qoralangan.*
- B) *O'zgalar ustidan kulmaslikka, behuda tanqid qilmaslikka da'vat etilgan.*
- C) *Rejissorning ham savodsizlikda boshqalardan qolishmasligi tasvirlangan.*
- D) *Har bir ishdan kamchilik, ayb topadigan kishilar tanqid ostiga olingan.*

19.

[0,9 ball]

– «J»ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?

– Kichigini yozib, qattiqroq o'qing!

Hikoyadan olingan ushbu parcha haqida berilgan **to'g'ri hukmni toping**.

- A) San'atkorning hazil-mutoyibaga moyil inson ekanligi tasvirlangan.
- B) San'atkorning mayda ishlar bilan shug'ullanmaydigan inson ekanligi nazarda tutilgan.
- C) Aslida san'atkorning o'zi ham xizmatchisi kabi o'qish-yozishni bilmasligi ifodalangan.
- D) Shu oddiy narsani ham bilmaydigan xizmatchisidan noroziligi ifoda etilgan.

20.

[0,9 ball]

Ushbu hikoyadagi traktorist (traktorchi) obrazi bilan bog'liq **to'g'ri javobni aniqlang**.

- A) San'atkor bo'lmasa-da, bu sohani yaxshi bilgani uchun tanqid qilishni yaxshi ko'radi.
- B) Bunday kishilarga nisbatan "Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin" degan xalq maqoli qo'llanadi.
- C) Insonning qay darajada savodli bo'lishi uning kasbi bilan bog'liq emasligini isbot eta olgan.
- D) Boshqa odamlardan farqli ravishda o'zgalar xursandchiligiga sherik bo'la olmaydigan inson.

Matnni o'qing va quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

Odamlar doimo Oyning faqat bir tomoninigina ko'radilar. Yerning tortishish maydoni Oyning o'z o'qi atrofida aylanishini sekinlashtiradi, shuning uchun ham Yer yo'ldoshining o'z o'qi atrofida aylanishi Yerning atrofida aylanish vaqtiga teng.

Yerning tortishish kuchi Oyning po'stlog'i yupqaroq tomoni bizga qarab qolishiga sababchidir.

Yer yo'ldoshi bo'lmish Oyda ham silkinish bo'lib turadi. Bu Yerning gravitatsiyasi sababli sodir bo'ladi. Silkinishlarning epitsentri Oy yuzasidan bir necha kilometr ichkarida joylashgan. Oy borgan sari Yerdan uzoqlashib bormoqda. Har yili Oy Yerdan deyarli 4 santimetrga uzoqlashmoqda, chunki Yerning aylanish davri kuniga 2 millisekundga sekinlashmoqda.

Oy Yerdagi suv havzalari sathining ko'tarilishi va pasayishini keltirib chiqaradi. Oyning gravitatsion kuchi sayyoramizdagi okeanlarga ta'sir qiladi. Suv sathining eng baland ko'rsatkichi to'lin oy yoki yangi oy chiqqan pallada ro'y beradi. Oy aslida shar ko'rinishida emas. U Yerning tortishish kuchi sababli tuxumsimonidir.

21.

[2,4 ball]

Qaysi javobda Oyning Yerdan uzoqlashishi sababi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Oyning tuxumsimon shaklda ekanligi
- B) Yerning aylanish harakatidagi o'zgarish
- C) Oyning tortishish kuchi ta'siri
- D) Yerning gravitatsion kuchi ta'siri

22.

[2,4 ball]

Nima sababdan Yer sharoitida Oyning faqat bir tomonini ko'rish mumkin?

- A) Oyning po'stlog'i yupqaroq tomoni Yerga ta'sir etganligi sababli
- B) Oyning o'z o'qi atrofida aylanishi Yer atrofida aylanish vaqtiga tengligi uchun
- C) Oy va Yer bir xil gravitatsiya (tortishish) kuchiga ega bo'lgani sababli
- D) Yerning tortishish kuchi Oy gravitatsiyasidan kuchsizroq bo'lgani uchun

23.

[2,4 ball]

Oyning Yerga ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Yerning o'z o'qi atrofida aylanishini sekinlashtiradi.
- B) Dengiz suvlarining toshishiga olib keladi.
- C) Yerdagi silkinishlarni yuzaga keltiradi.
- D) Gravitatsiyasi ta'sirida Yerni o'zidan uzoqlashtiradi.

She'rni o'qing va quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.

YAXSHILIK

*Bu yorug' dunyoda davrini surib,
Birovga yaxshilik qilmaganlar bor.
Va lekin bir umr yaxshilik ko'rib,
Uning nimaligin bilmaganlar bor.*

*Og'ir dard chekkandim men ham bir zamon,
Begona ellarda, do'stlardan yiroq.
Madad bergan edi ulug' bir inson,
Men uning siymosin unutay qandog'?*

*Yarqirab turibdi ko'ksingda yulduz,
Osmondan tushmagan u ham, hoynahoy,
Kimdir sen haqingda aytdi yaxshi so'z,
Shundan ko'kragingda yulduz topdi joy.*

*Deydilar: "Dunyoning doim biri kam",
Yaxshilik qilish ham osonmas, biroq
Mening nazarimda, yaxshilikdan ham
Uning qadrin bilmoq ming bor yaxshiroq.*

24.

[1,7 ball]

She'rning umumiy mazmuniga oid **to'g'ri fikrni aniqlang**.

- A) Yomonlik qilgan kishilarga ham yaxshilik qilishga da'vat etilgan.
- B) Har qanday yaxshilik ortida ma'lum bir manfaat ko'zlanishi aytib o'tilgan.
- C) Begona ellarda qilingan yaxshilikning qadri baland ekanligi ta'kidlangan.
- D) Qilingan yaxshilikning qadriga yetib yashashga da'vat etilgan.

25.

[1,7 ball]

She'rning mazmuniga oid **XATO fikrni aniqlang**.

- A) Inson hech bir yutuqqa o'z-o'zidan erisha olmaydi degan mazmun ifodalangan.
- B) Yaxshilik qilish har qanday kishining qo'lidan kelishiga ishora mavjud.
- C) Insonning mehnatini e'tirof etish ham yaxshilik ekanligi aytib o'tilgan.
- D) Ba'zan yaxshilik qilish uchun insonda imkoniyat bo'lmasligiga ishora mavjud.

26. [1,7 ball]

She'r haqida berilgan to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Kimgadir yaxshilik qilish uchun yaxshi inson bo'lishing shart degan mazmun ifodalangan.
- B) Bu dunyoda bir umr yaxshilik ko'rmay ketgan insonlar haqida fikr yuritilgan.
- C) Yaxshilik qilish har qanday mushkulotdan qutulishga yordam berishi ta'kidlangan.
- D) O'zgalarga yaxshilik qilish insonni buyuklashtiradi degan mazmun ifodalangan.

27. [1,7 ball]

She'rning birinchi bandidagi ajratib ko'rsatilgan misralar orqali qanday kishilar nazarda tutilgan?

- A) yengil hayotga o'rgangan, qiyinchilik ko'rmagan odamlar
- B) boshqalarning yaxshiligini unutgan kimsalar
- C) hech narsani o'ylamaydigan, parvoyi palak odamlar
- D) imkoniyati bo'la turib yaxshilik qilishga intilmaydigan kimsalar

28-30.

Matnni o'qing va 28-30-topshiriqlarni bajaring.

Topshiriqlar	Matn
<p>28. [1,7 ball] Imloviy xatolik kuzatilgan gapni aniqlang.</p> <p>29. [1,7 ball] Punktuatsion xatolik kuzatilgan gapni aniqlang.</p> <p>30. [1,7 ball] Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilgan gapni aniqlang.</p>	<p>A) Adib ilmning jamiyatdagi o'rniga yuksak baho beradi, uni insonlar hayotini yorituvchi mash'alga qiyoslaydi. B) Olimlarni haqiqat ustunlari deb biladi. C) Farzandning xushaxloq, ilm-u hunarli bo'lib ulg'ayishida otaning o'rni haqida so'z yuritadi. D) Shoirning siyosiy qarashlari, xususan bek va raiyat borasidagi fikrlari kishini hayratga soladi. E) Yusuf Xos Hojibning fikricha, har bir shaxs jamiyatning og'irini yengil qilishga urunmog'i lozim. F) Asar to'algicha turkiy xalqlarning davlat tuzilishi hamda el-yurt farovonligini ta'minlashga qaratilgan omillarni badiiy tahlilidan iborat.</p>